

MEDIA MAKONDA SUN'IY INTELLEKT YANGI TARIX VA YANGI DUNYOQARASH

Erimbetova Sevinchoy

Amanullayeva O'g'iloy

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti Tiflopedagogika yo'nalishi talabalari

erimbetovasevinchoy@gmail.com

Ugiloyamonova797@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17746810>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb mavzuga aylangan "Sun'iy intellekt" haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Maqola davomida Sun'iy intellekt o'zi nima?, Sun'iy intellektning tarixi, rivojlanish bosqichlari?, Sun'iy intellektning insoniyatga xavfi bormi? kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, Intellektual mulk, BIMT, Raqamli O'zbekiston, ITpark, Bir million dasturchi, Yoshlar texnoparklari, Face-ID, Maxsus rejim.

Bugungi kunda mamlakatimizning rivoji yo'lida iqtisodiy globalizatsiyasi bilan bir qatorda intellektual mulk huquqi va uning himoyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, intellektual mulk himoyasi davlatning innovatsiyalar orqali o'z sanoatini yuksaltirishdan tashqari, xorijdan texnologiya transferi, investitsiya qilish va aholini ish bilan ta'minlash sohasida o'ziga xos "kalit" bo'ladigan vosita hisoblanadi. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sun'iy intellekt deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim tushuniladi. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Sun'iy intellektning ideal xususiyati - bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Hozirda sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritim hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqqan oladi. Olimlar sun'iy intellekt bilan tajriba o'tkazishga ishtiyoq bilan qarashsada, ko'p odamlar bu hodisadan ehtiyot bo'lishadi. Hatto Tesla rahbari Elon Mask ham buni insoniyat uchun "asosiy tahdid" va urush va ishsizlikning mumkin manbasi deb atagan.

Sun'iy intellektni ilmiy yo'nalish sifatida rivojlantirish faqat EHM yaratilgandan keyin mumkin bo'lgan. Bu XX asrning yillarida sodir bo'lgan. Bu vaqtda N.Viner (1894-1964) yangi fan kibernetika bo'yicha o'zining asosiy ishlarini yaratadi. Sun'iy intellekt atamasi 1956 Stenford universiteti (AQSh) dagi xuddi shunday nomdagi seminarda taklif qilingan. Seminar hisoblash emas, balki mantiqiy vazifalarni ishlab chiqishga mo'ljallangan. Sun'iy intellektning fanning mustaqil sohasi deb tan olingandan keyin tezda uni ikkita asosiy yo'nalishlarga: neyrokibernetika va "qora quti" kibernetikasiga bo'linishi sodir bo'lgan. Va faqat hozirgi vaqtda bu qismlarni yana bitta butuncha birlashishining tendentsiyasi sezilmoqda.

Sun'iy intellektni amaliy qo'llashda katta ilgariga surilish 70 yillarning o'rtalarida ro'y berdi, bu vaqtda inson tafakkurining universal algoritimini qidirish o'rniga mutaxassislar-

ekspertlarning aniq bilimlarini modellashtirish va bilim eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan dasturiy vositalar va tizimlarni ishlab chiqish g'oyasi kelgan.

70 yillarda sun'iy intellekt sohasidagi mutaxassislar vazifalarni yechishning umumiy usullari va bu usullardan universal dasturlarda foydalanishni qidirib, inson tafakkurining murakkab jarayonini modellashtirishga harakat qilganlar. Ammo bunday dasturlarni ishlab chiqish judayam qiyin ish bo'lgan, chunki bitta dastur yecha olishi mumkin bo'lgan vazifalar sinfi qanchalik keng bo'lsa, aniq vazifani yechishda uning imkoniyatlari shunchalik kattaroq bo'lgan.

80 yillarda dasturchilarning harakatlari axborotlarni taqdim etish va qidirish usullarini ishlab chiqishga jalb qilingan. Axborotlarni taqdim etish usullari - bu muammolar va vazifalarni uni yechish mumkin bo'lishi uchun shakillantirish usullaridir. Qidirish usullari esa - bu judayam katta hajmda xotira va vaqt talab qilmaslik uchun yechimni borishini boshqarishning ajoyib usulidir. 80 yillarning ohirida sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar vazifalarni yechishda dasturlarning samaradorligi ko'proq ular egalik qiladigan bilimlarga bog'liqligini tushunib yetadilar.

90 yillarni boshlarida butunlay yangi kontseptsiya qabul qilingan. Uni mohiyati shundan iboratki, dasturni intellektli qilish uchun uni ba'zi bir predmetli sohadagi yo'lgina yuqori sifatli maxsus bilimlar bilan ta'minlash kerak. Shunday qilib, ishlab chiqilayotgan sun'iy intellekt tizimlari bilimlarning yaxshi rivojlangan bazasiga ega bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda bu kontseptsiya ekspert tizimlarini loyihalashtirishda to'liqroq rivojlangan

Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask Sun'iy intellektning butun boshli sivilizatsiyani barbod qilishiga ishonchi komil. Maskning fikricha, "Sun'iy intellekt insoniyat sivilizatssiyasi uchun asosiy xavfdir. Sun'iy intellekt mehnat bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq bajarishadi. Ilg'or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun'iy intellekt ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun'iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko'rmay qolishlari mumkin"

Shuningdek Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarari haqida to'xtalib o'tadi.

"Bir necha 10 yildan so'ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, sun'iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni havotirga sola boshlaydi, bu borada Elon Maskning fikriga qo'shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunaolmayman."-deydi Bill Geyts.

"Boshqalar" deganda Geyts Facebook egasi Mark Sukerbergni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Chunki, Mark Sun'iy intellektga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. Sun'iy intellektning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa yaqin 5-10 yil ichida ko'ramiz", deya Elon Maskning fikriga e'tiroz bildirgan edi [5].

Hozirgi kunga kelib ba'zi davlatlarda robot hamshiralar, o'zi yurar avtomabillar, turli xil xizmatlarga mo'ljallangan dronlar xizmatidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Olimlar imkon qadar ularni inson qiyofasiga o'xshatishga harkat qilishnoqda. Ko'rib turganingizdek sun'iy intellektni hayotimizdagi o'rni kundan kunga ortib bormoqda. Sun'iy intellekt foydami yoki zarar? Kabi savollarga turli xil javoblar berishmoqda. Menimcha bu bahs-munozaralar hali uzoq davom etadi.

So'nggi yillarda yurtimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish, sohani jahon talablari darajasida rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan harakatlar jadallashmoqda. Jumladan, faoliyati kengayib borayotgan "IT park"lar, "Bir

million dasturchi", "Yoshlar texnoparklari" mazkur sohaning barqaror rivojiga juda katta umid uyg'otadi. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Koreya, Kanada kabi 30 dan ortiq davlatlarda sun'iy intellektning rivojlantirish strategiyalari qabul qilingan.

Robotlarni yaratishda insoniyatga xavf tug'dirmaslik yo'llarini o'ylab qo'yish ham zarar emas.

Albatta, sun'iy intellekt yordamida o'tmishni, tarixiy shaxslarimizni yosh avlod ko'z o'ngida gavdalandirish mas'uliyatli va g'oyat murakkab vazifa.

– Maqsadimiz tariximizni, buyuk ajdodlarimiz siymosini asosli manbalarga tayanib, haqqoniy aks ettirish, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov. – Negaki, bu qiyofalarni o'zimiz to'g'ri talqinda gavdalandirmasak, sun'iy idrok uni o'zi istagancha, o'zi bilgancha ruhsiz talqinda dunyoga taqdim etadi. Misol uchun, sun'iy idrokka Amir Temurni tasvirlab ber desangiz, u sizga turli xil qiyofali "sohibqiron"ni ko'rsatadi. Bugun mana shu dolzarb masala o'z yechimini kutayapti. 50–100 yildan keyingi avlod tarixni kitoblardan qidirmasligi mumkin. Ularning bilimi, dunyoqarashi media taassurot asosida shakllanadi. Demakki, mutaxassislarimiz kelajakni ham ko'zlab, savolga o'rin qolmaydigan darajada tarixiy qiyofalarni jonlantirib berishlari kerak.

Ijodiy jarayonni kuzatar ekanmiz, tarixchi olimlar va media mutaxassislar qizg'in munozara hamda bahslarda izlanish olib borayotganiga guvoh bo'ldik. Loyiha doirasida Temur bobomizning shaxsi, qiyofasi, yuz tuzilishi, ko'z qarashi, liboslari, xatti-harakatlari, ovozi hamda tabiatidagi o'ziga xoslikning to'laqonli ifodasi sun'iy intellektning ma'lumotlar bazasiga joylab borilyapti.

Loyiha ustida ishlayotgan soha mutaxassisi Davlat Hamroqulovning ta'kidlashicha, manbalarda keltirilgan ma'lumotlar va bizga tanish bo'lgan suratlar asosida izchil izlanishlar olib borildi:

– Tarixiy siymoning obrazini shakllantirishning o'ziga yarasha qiyinchiligi va mas'uliyati bor, albatta. Bu yerda zargarona nigoh va me'yor kerak. Uzoq izlanishlar samarasi o'laroq, buyuk bobomizning qiyofasi manbalardagiga o'xshadi, degan to'xtamga kelindi. Shundan so'ng sun'iy intellektidan tasdiq xati keldi. Biz yaratgan surat unga ma'qul kelgani va ushbu media mahsulotni tavsiyaviy ilovalarga joylashtirish uchun rozilik berishimizni so'radi.

Otabek Hasanovning aytishicha, Sohibqironning 690 yillik yubileyigacha, ya'ni bir yil muddatda Amir Temur haqidagi barcha ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlarga joylanadi:

– Biz nimani xohlayapmiz? Amir Temur haqida qidiruv tugmasi bosilganda birinchi bo'lib, asoslangan va to'g'ri talqindagi ilmiy tasdig'ini topgan siymo qiyofasi foydalanuvchiga taqdim etilishini maqsad qilganmiz. Bu natijaga erishish uchun biz bor texnik imkoniyatlarimizni ishga solamiz, olimlarimizdan esa bilim, fidoyilik va vatanparvarlik taqozo etiladi.

Media makon — bu axborot tarqaladigan, qayta ishlanadigan va iste'mol qilinadigan raqamli hamda an'anaviy kommunikatsiya maydonidir. Dastlab gazeta, radio va televideniya kabi ommaviy axborot vositalari media makonning asosi bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt asosidagi algoritmik platformalar uni tubdan o'zgartirib yubordi.

Media makonning asosiy xususiyatlari:

Tezkorlik – ma'lumot bir zumda tarqaladi;

Interaktivlik – foydalanuvchi ham axborot yaratuvchisiga aylanadi;

Algoritmik boshqaruv – axborot oqimini mashinalar nazorat qiladi;

Global miqyos – geografik chegaralar ahamiyatini yo'qotadi.

Sun'iy intellekt g'oyasi XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, u 2010-yillardan boshlab media industriyasiga faol kirib keldi. Dastlabki algoritmlar matnlarni tahlil qilish, ma'lumotni saralash uchun ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda SI:

Algoritmik jurnalistika — bu SI asosida ishlovchi axborot ishlab chiqarish jarayonidir. Bu tizimda inson jurnalist emas, balki algoritm tahlilchi sifatida ishlaydi. Masalan, sport, moliya yoki ob-havo yangiliklarini yaratishda SI insondan tezroq va aniqroq ishlaydi.

Ammo bu jarayon inson omilining kamayishiga, axborotda hissiylikning yo'qolishiga ham olib keladi. Shu bilan birga, axborot siyosati endilikda inson emas, balki korporativ algoritmlar nazoratiga o'tmoqda.

Sun'iy intellekt media makonida nafaqat imkoniyat, balki xavf ham tug'diradi. Asosiy muammolar quyidagilar: Dezinformatsiya – SI yordamida soxta kontent yaratish osonlashdi; Axborot manipulyatsiyasi – algoritmlar orqali jamoatchilik fikrini boshqarish mumkin;

Shaxsiy hayot daxlsizligi – foydalanuvchi ma'lumotlari doimiy ravishda yig'iladi va tahlil qilinadi;

Tarixiy jarayonlar har doim texnologik inqiloblar bilan bog'liq bo'lgan. Bugun esa SI yangi tarix – “raqamli antropotsen” davrini boshlab berdi. Endi tarixni inson emas, balki algoritmlar yozmoqda. Masalan:

SI asosidagi media makon insonning borliqni idrok etish tarzini o'zgartirmoqda. Avvallari dunyoqarash falsafiy va madaniy tajribalarga asoslangan bo'lsa, bugun u algoritmik tahlil va raqamli obrazlar orqali shakllanadi.

Bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Vizual dunyoqarash – matn emas, rasm va video orqali fikrlash;

Qisqa axborot paradigmasi – “short content” dunyoqarashni soddalashtiradi;

Kollektiv ong – ijtimoiy tarmoqlar orqali umumiy fikr modeli paydo bo'ladi;

Sun'iy tafakkur – inson o'z qarorini SI tahliliga asoslaydi.

Media makon madaniyatni qayta yaratmoqda. San'at, adabiyot, musiqa – barchasi SI yordamida avtomatlashtirilmoqda. Masalan: Midjourney, DALL-E kabi tizimlar raqamli tasvir yaratadi;

ChatGPT va Claude kabi modellardan badiiy matnlar yozishda foydalaniladi;

Virtual shaxslar (avatarlar) san'atkor yoki jurnalist sifatida tanilmoqda.

Bunday o'zgarishlar madaniyatning insoniy mohiyatini muhokamaga olib chiqmoqda.

O'zbekiston ham SI texnologiyalarini media sohasiga joriy etish yo'lida faol harakat qilmoqda. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va “O'zbekiston 24” kabi kanallarda avtomatik tahlil, tarjima va kontent generatsiyasi joriy etilmoqda. Global miqyosda esa Google, Meta, OpenAI, Microsoft kabi kompaniyalar SI asosida media siyosatini shakllantiruvchi yirik o'yinchilarga aylangan.

Ko'pchilik olimlar SI insonni siqib chiqaradi, deb xavotirda. Ammo aslida inson o'z tafakkuri, ma'naviyati va ijodiy qudrati bilan har qanday mashinadan ustundir. Insonning asosiy vazifasi – texnologiyani maqsadli, axloqiy va adolatli yo'nalishda boshqarishdir.

Xulosa

Sun'iy intellekt media makonning yangi tarixini yozmoqda. U axborotni yaratish, tarqatish va qabul qilish tamoyillarini tubdan o'zgartirdi. Natijada insoniyat yangi dunyoqarash sari kirib kelmoqda – bu dunyoqarashda haqiqat, xabar va tasvir birlashib, raqamli ong shaklini olmoqda.

Ammo bu jarayonni boshqarish, axborotning axloqiy chegaralarini belgilash va insonning o'zini yo'qotmasligi bugungi eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yusupbekov N. R. Boshqarishning intellektual ti/implari va qaror qabul qilish / N. R. Yusupbekov. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.- 572 b.
2. Nazarov X. N. Robotlar va robototexnik tizimlar. Darslik. - "MASHHUR PRESS", 2019, -236 b.
3. Angeles J. Fundamentals of Robotic Mechanical Systems Theory, Methods, and Algorithms. - VerlagNew York, Inc., 2003. 545 p.
4. Kurfess T. Robotics and automation handbook. CRC Press LLC, 2005. -519 p.